


TARBIYA 2

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
2-sinf o'quvchilari uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan tavsiya etilgan



G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2020

UO'K 17(075.2)

KBK 87.7ya71

T 23

**Ismatova Nargiza, Zokirova Sevara, Mo'minova Laylo,
Rahimjonov Durbek, Ro'ziyeva Dilnoz, Islomov Zohidjon,
Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir, Mahmudov Obiddin,
Madaliyeva Sevara, Shermuhamedova Saodat, Akkulova
Saodat, Xolmuhamedova Nilufar**

Mas'ul muharrirlar:

Z. Islomov

– filologiya fanlari doktori, professor.

D. Kenjayev

– tarix fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

M. Quronov

– Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari o'rinnbosari;

L. Gaynuddinova

– Respublika tashxis markazi direktori;

Z. Jabborova

– Respublika ta'lim markazi "Ijtimoiy va gumanitar fanlar" bo'limi metodisti;

F. Karimova

– Toshkent shahar Chilonzor tumani 281-umumta'lim makkabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi*

N. Ismatova va b.

Tarbiya: 2-sinf uchun darslik. 1-nashr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 80 b.

UO'K 17(075.2)

KBK 87.7ya71

© N. Ismatova va boshqalar.

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020

ISBN 978-9943-6113-5-1



Assalomu alaykum, aziz bolajon!

Siz yana bir yoshga ulg'aydingiz. Sizni maktabingiz intazorlik bilan kutmoqda. Siz o'z oldingizga qanday maqsadlar qo'ygan edingiz? Maqsadlaringizga erishish uchun esa, bilimlar sultanatini bosib o'tishingiz kerak bo'ladi.

Bilimlar sultanatining vazifalarni o'z vaqtida bajarish, darsga kech qolmaslik, savol berishdan cho'chimaslik, o'ng qo'l qoidasiga rioxva qilish, yolg'on gapirmaslik va samimiy bo'lismi kabi tartib-qoidalalariga amal qilsangiz, u Sizga o'zining tilsimlarini ochadi.

Aziz bolajon! O'ylaymizki, bu tartib-qoidalarni bajar olasiz! Qo'lingizdagi ushbu darslik esa Sizni muvaffaqiyatlar sari yetaklaydi. Buning uchun albatta, yo'l ko'rsatkichlariga e'tibor qarating! Ular Sizning bilimingiz yanada mustahkam bo'lishi uchun yordam beradi. Bilimlar sultanatini muvaffaqiyatli egallashingizda Sizga omad, ishonch va qat'iyat tilaymiz.



O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:



Oila davrasida



Ijodiy faoliyat



Bilasizmi?




Odob durdonalari





1-MAVZU: OLAMNI MAHLIYO AYLAGAN DIYOR




O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:



1. Siz ertalab quyoshning chiqishini kuzatganmisiz? Kuzatgan bo'lsangiz manzarani tasvirlab bering.
2. "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" ertagini eshitganmisiz? Semurg' qanday qush va u nimaning ramzi sanaladi?
3. Mamlakatimiz dalalarida qanday o'simliklar yetishtiriladi?
4. 1-, 2-, 3-, 4-, 6-rasmlar bilan 5-rasm o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
5. 7-, 8-rasmlar asosida "Olamni mahliyo aylagan diyor" jumlasining mazmuniga mos matn tuzing.
6. 8-rasmda tasvirlangan insonlar mamlakat ravnaqiga qanday hissa qo'shmoqdalar?



1



2



3



4





5



6



7



7



8



Oila davrasida

O'zbekiston

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda.
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo,
O'xshashini topmasdim aslo.
O'xhashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston.
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur...

Hamid Olimjon





Ijodiy faoliyat




1. Hamid Olimjonning “O‘zbekiston” she’rida “Bir ajib his” haqida so‘z boradi. U qanday his bo‘lishi mumkin?
2. O‘zbekistonimizni dunyoga tanitish uchun nima qilishimiz kerak, deb o‘ylaysiz?
3. Bilim olish uchun qanday harakat qilish lozim?
4. Siz nimaga qiziqasiz? Sizning qiziqishlaringiz O‘zbekistонни dunyoga tanitishga xizmat qila oladimi?
5. Sizning katta yoki kichik yutuqlaringizdan oilangizdagilar, yaqinlaringiz xursand bo‘lganmi? Alifbeni yod olib, mustaqil kitob o‘qiy boshlagan kuningizni eslang. Siz uchun bu katta bayram bo‘lganmi?
6. Sizdan yaqinlaringiz ko‘plab yutuqlarga erishishingizni kutib qoladilar. Siz bunga tayyormisiz?

Bilasizmi?



Abu Ali ibn Sino

13 yoshidan boshlang‘ich matematika, mantiq kabi ilmlar bilan shug‘ullanma boshlagan. 16–17 yoshida mashhur tabib – hakim bo‘lib tanilgan.





2–3-MAVZU: IMKONIYATLAR VA EHTIYOJLAR



O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

1. "Imkoniyatlar", "ehtiyojlar" deganda nimani tushunasiz?
2. Sizning qanday ehtiyojingiz bor?
3. Ehtiyojingizni qondirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud?
4. Esingizdami, 1-sinfga kelgan kuningiz ustozingiz sizdan orzularingiz haqida so'rangan edi. Orzularingizga erishish uchun oldingizga qanday maqsad qo'ygansiz?
5. Oilangizdagilar o'z orzulariga qanday erishganliklarini so'raganmisiz?
6. Puxta bilimga ega bo'lish uchun nima qilishingiz kerak?
7. Quyidagi gaplarni o'z maqsadlaringiz bilan bog'lab daftaringizga yozing.

Men katta bo'lsam _____ bo'laman.


Buning uchun _____ kerak.

_____ uchun _____ bo'lishim kerak.

_____ bo'lishim uchun _____

dan voz kechishim kerak.

_____ tilini ham o'rganishim kerak.





Ilmning boshi – odob

Bir olim odobning ko'rinishlari haqida suhbatlashish uchun o'z shogirdlarini uyiga chaqiribdi. Bu suhbatga keksayib qolgan ustozini ham taklif qilibdi.

Uyga yig'ilganlar tarbiya, odob-axloq haqida qizg'in suhbatni boshlab yuborishibdi, olim taom tayyorlash uchun chiqib ketibdi.

Olimning ustози mehmondorchilikka biroz kechikib, poygakka kelib o'tiribdi. Odmi kiyingan qariyaga hech kim e'tibor ham bermabdi.

Yig'ilganlarning hammasi bir-birlarini kutmay, tovushlarini ko'tarib o'z fikrlarini aytishar edi. Shu orada xonaga olim kirib kelibdi va ustози bilan suhbatlasha boshlabdi. Shu payt yig'ilganlardan biri olimdan o'zaro munozaraga sabab bo'layotgan masala haqida fikr so'rabdi. Olim bu haqida ustozining fikrini bilishi kerakligini aytibdi...





I bob. Imkoniyatlar eshigi



Oila davrasida

1. Siz nima deb o'ylaysiz? Nima uchun olim munozara haqida avval ustozining fikrini bilmoxchi bo'ldi?
2. Siz nima qilgan bo'lardingiz?
3. Siz shogird o'z ustozining gapini bo'lganini qanday izohlaysiz?
4. "Ilmning boshi – odob" hikoyasini oila a'zolaringiz bilan o'qib chiqing.



Ijodiy faoliyat

1. Olimning savoliga ustozi nima deb javob bergen bo'lishi mumkin? Javobingizni quyida berilgan matn bilan solishtirib ko'ring:
"Keksa yoshli ustoz biroz o'ylanib, past ovozda dedi: "Sizning munozarangiz oxiriga yetmaydi, chunki o'zingizda yo'q narsa ustida bahslashayapsizlar".
2. Hikoya yuzasidan xulosa qiling.
3. "Bilingki, xumning ichi bo'sh bo'lsa, ovozi qattiq chiqadi" degan maqolni hikoya bilan bog'lang.
4. Keksa yoshli ustoz nimani nazarda tutgan bo'lishi mumkin? Quyidagi jadvaldan o'z javobingizni tanlang va daftaringizga chizing:

Ilm

Odob

Tarbiya

Boylik

Aql





She'rni yod oling!

KO'CHAMDA BOR BIR BOLA

Ko'chamda bor bir bola,
 Bu she'rim o'sha haqda.
 Nomin aytmayman, chunki
 Bundaylar oz sanoqda.
 Mazasi yo'q darslardan
 Yashirmoqlik ne darkor?!
 Bu yil ham ikkinchida
 O'qimoqda u takror.
 Qaylardadir sanqiydi,
 Maktabga kelmas yetib.
 Kech qolmagin, desalar,
 Qo'yar qo'lin silkitib.
 Kitobni hech o'qimas,
 Futbolga chopar nuqlu.
 Oyisi ish buyursa,
 Mudom aldab qochar ul.
 So'zlari biram dag'al,
 Odobni hech bilmaydi.
 O'zidan boshqalarni
 Nazariga ilmaydi.

Tuzalmasa bu bola
 Doston etgum ta'rifin.
 Butun elga yoyaman
 Qo'shib ism-u sharifin.


Obid Rasul





4-MAVZU: MEN QANDAY INSON BO'LISHIM KERAK?

1. Agar maqsad sari intilishingizni transport vositasi deb tasavvur qilsak, siz o'zingizni qaysi transport vositasi deb hisoblaysiz?



2. Bilimli bo'lish uchun sizga qanday imkoniyatlar berilgan?



3. Rasmda berilgan bolalarning imkoniyati bilan o'zingizning imkoniyatlaringizni solishtirib ko'ring. Ularning ham ilm olishga imkoniyati bormi?





Ota-onaning orzusi

Behzod dam olish kunini orziqib kutadi. Chunki bu kunda barcha oila a'zolari birga bo'lishadi. Oila davrasida bo'ladigan dildan suhbatlar Behzodga juda yoqadi. Bugun dadasi undan kelajakdagi orzulari haqida so'radi.

Oila a'zolariga o'z orzulari haqida gapirib berar ekan, Behzod ham dadasidan orzulari haqida qiziqib so'radi.

"O'g'lim, har bir ota-onaning orzusi, avvalo, farzan-dini aqli, odobli, kelajakda yurtga foydasi tegadigan yaxshi inson bo'lishini ko'rishdir", – dedi dadasi.

Dadasining so'zlaridan ta'sirlangan Behzod ota-onasining orzusidagidek inson bo'lishga ahd qildi.



Ijodiy faoliyat




1. "Mening oilam" mavzusida tasavvuringizdagi uyning rasmini chizing. Unda oilangizning qaysi a'zolari bilan birga yashashni xohlar edingiz? Ularni belgilar bilan ko'rsating.





BU BOLALAR SIZNING TENGDOSHINGIZ BO'LGAN



Koreys millatidan bo'lgan bu bolaning ismi **Kim Ung-Yong**. U 3 yoshida koreys, ingliz, yapon, nemis tillarida o'qish va yozishni bilgan. 4 yoshida Kim universitetga o'qishga qabul qilingan. 15 yoshida fizika fanlari doktori ilmiy unvonini olgan.

Hindistonda tug'ilgan **Akrit Yasval** 7 yoshida o'zining dastlabki jarrohlik amaliyotini o'tkazib, dunyo diqqatini jalg etgan. Uning mijoji qo'shnisining 8 yoshli qizi bo'lgan. Hozir u kollejda shifokorlik bo'yicha o'qimoqda.



O'zbekistonlik **Javohir Sindarov** 12 yoshida grossmeistrlik unvonini qo'lga kiritgan. Osiyolik eng yosh shaxmatchi sifatida tarixga kirgan.





Habashistonlik Mit Fudji 3 yoshida Lagosda o'tkazilgan Sipa Press ko'rgazmasida fotolavhalari bilan ishtirok etib mashhur bo'lgan. Hozir uning 3000 dan ortiq fotolavhalari bor.



Avstraliyalik Aelita Andre o'zining dastlabki rasmlarini 9 oylik vaqtida chizgan. 2 yoshida esa uning birinchi ko'rgazmasi tashkil qilingan.




Danat Plyushinu-etanvi Tailandda tug'ilgan. U juda ham iqtidorli bo'lib, skripka chaladi va rasm chizadi. U 3 yoshida Bangkokda birinchi ko'rgazmasini o'tkazgan. Skripkani esa 3,5 yoshidan chalishni boshlagan. Bundan tashqari, u ajoyib notiq hamdir.





II bob. Oiladagi munosabatlar

5–6-MAVZU: QARISI BOR UYNING PARISI BOR



**O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:**

1. Oila a'zolariga qanday munosabatda bo'lish kerak?
2. Kimga qanday murojaat qilinadi?
3. Sizning oilangizda qanday odat va an'analarga amal qilinadi?
4. Ukalaringizga qaysi odatingiz bilan ibrat bo'lasiz?
5. Oila a'zolaringizga qanday minnatdorchilik bildirasiz?

Dam olish kuni

Dam olish kunlari onam hammamizni barvaqt uyg'otadilar. Dadam, akam va men bozorga boramiz. Biz kelguncha opam va singlim ko'chahovlini supurib qo'yishadi.

Onajonim tandirda non, somsa yopishga ham ulguradilar. Bozordan xarid qilingan qaymoq, onam





yopgan issiq non va somsalarni olib, erta tongdan bobomnikiga boramiz. Bobojonim va buvijonim bizlarni har galgidek quchoq ochib kutib oladilar.

Nonushtadan so'ng, bobojonim bizning kundaligimizni ko'radilar va yutug'imizdan quvonadilar. "Barakalla, umring uzoq bo'lsin, katta olim bo'lgin", – deb duo qiladilar.



Ijodiy faoliyat



1. Siz uyda qanday ishlarga yordam berasiz?
2. Mazkur matn "Qarisi bor uyning parisi bor" maqoliga mazmunan qanday bog'liq?
3. Bobojonlar va buvijonlarga qanday munosabatda bo'lish kerak?



She'rni yod oling!

Buvim bilan men


Buvijonim keksalar,
Bir ish, bir gap aytsalar,
Bajaraman chopgancha,
Olqish olaman qancha.
Men ham uyda, so'zim chin,
Kattalarga yordamchi,
Suv quyaman gulimga,
O't beraman echkimga.
Eshik ochsam, supursam,
Ashula aytsam, kulsam,
Buvim derlar bo'lib shod,
"Rahmat, qizim, kamol top!"

Hamidulla Yoqubov



Ijodiy faoliyat

1. She'rdagi "Men ham uyda, so'zim chin, kattalarga yordamchi" matnini qanday tushundingiz?
2. She'r matnidagi *keksalar, chopgancha, yordamchi* so'zlarini qanday so'zlar bilan almashtirish mumkin?





Bizning oila

Mening ismim Nodirbek. Har kuni kechki ovqatdan so'ng oilamizdagilar kitob o'qish, rasm chizish, kashta tikish kabi sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar. Men esa bobom bilan shaxmat o'yinayman.

Shaxmat donachalarini terar ekanmiz, bobom mashhur kishilar, olim-u donishmandlarning ko'pchiligi shaxmatni yaxshi o'ynaganliklari va qadimda hukmdorlar jangdan oldin shaxmat o'ynab, undagi yurislardan jangda foydalanganliklari haqida aytib berdilar. Shaxmat Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk bobokalonlarimizning sevgan mashg'uloti bo'lganligini ta'kidladilar.

Shaxmat yosh tanlamaydigan, bir vaqtning o'zida ham zavqli, ham mashaqqatli o'yindir. Bu o'yinni o'ynash uchun insonga aql va tafakkur, sabr zarurdir.





II bob. Oiladagi munosabatlar

Nodirbek Abdusattorov 2011-yili Hindistonda mактаб о'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan shaxmat bo'yicha Osiyo championatida va Filippinda o'smirlar o'rtasidagi qit'a birinchiligidagi bronza, 2012-yili sakkiz yoshida Slovenianing Maribor shahrida o'tkazilgan jahon championatida oltin medalni qo'lga kiritgan. 2014-yili Nodirbek Abdusattorov o'n yoshgacha bo'lgan shaxmatchilar bahsida shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. 2016-yili Rossiyada o'tkazilgan jahon championatida ikkita oltin medalga sazovor bo'ldi.



Ijodi faoliyat


1. Siz ham shaxmat o'ziniga qiziqasizmi?
2. Shaxmat Nodirbekda qanday xislatlarni shakllantirdi?





7–8-MAVZU: MAKTABIM – QADRDONIM


**O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:**



1. Hech sanaganmisiz, bir kunda maktabingizning eshididan necha marta kirib-chiqasiz?
2. Erkin qo'liga qalam olib, sinf devoriga nimadir chiza boshladi... Siz Erkining harakatiga qanday qaraysiz? Erkinga nima degan bo'lar edingiz?
3. Maktabingizning sinfxonalari nechta ekanligi, ularda necha nafar o'quvchi o'qishi haqida o'ylab ko'rganmisiz?



2-“A” sinf



2-QAVAT





Maktab mulki kimniki?



Akmal matematika darsida berilgan misollarni hammadan avval ishlab, "a'lo" baho oldi, lekin misolni tez ishslash uchun sumkasidan qoralama dafтарини олишга ериниб, partaga yozdi.

Bu ishni ko'rib turgan Olimjon tanaffusda Akmalga tanbeh berdi.

Shu kuni darsdan keyin maktabimizda soliqchilar bilan uchrashuv bo'ldi. Uchrashuvda ota-onamizning soliq uchun to'laydigan pullari maktab, bog'cha, shifoxonalar qurilishi va ularning ta'mirlanishi uchun sarflanishini bilib oldik.



Oila davrasida

1. Akmal to'g'ri ish qildimi? Siz partaga chizganimisiz?
2. Maktab mulki kimniki?
3. Soliqlar nimaga ishlatilar ekan?
4. Maktab multini nima uchun asrash kerak?





Ijodiy faoliyat

She'rnii yod oling!



O'quvchiga esdalik

O'qituvchining ko'rganda,
Saloming qilma kanda.
Sinfga kirsa agar,
Tur oyoqqa barobar.
Agarda bersa so'roq,
Qadding bo'lmasin o'roq.
Javob bersang qo'l ko'tar,
Shovqinlanma, vaqt o'tar!
Boshlansa sinfda dars,
Sergak bo'lgin har nafas.
Anqayma va lalayma,
To'g'ri o'tir, shalpayma.

Quddus Muhammadiy



Bilasizmi?



Yaponiya maktabalarida farosh yo'q ekan. O'quvchilarning o'zlari hamma ishni bajarishar, hatto hojatxonani ham tozalashar ekan.





II bob. Oiladagi munosabatlar

1. Shoirning tavsiyalarini maktabingiz qoidalari bilan solishtirib ko'ring. Bir-biriga o'xshash tomonlari bormi?

2. Yapon maktablarining o'quvchilari nima uchun maktablarini tozalashdan bosh tortishmaydi, deb o'ylaysiz?

3. Yaponiya maktablari juda ozoda ekan, biror narsa nojo'ya yotmas, partalarga hech kim yozmas ekan. Buning sababi nima deb o'ylaysiz?

4. Quyidagi qoidalarning maktabingiz qoidalari bilan o'xshash tomoni bormi:

- shunday yashaginki, sening boshqa odamlarga zararing tegmasin, ular sen bilan faxrlansin;

- insonlarga murojaat qilishda tabassum qilishni unutma, chunki iliq munosabatlar tabassumdan boshlanadi;

- faqat o'z yutuqlaringdan quvonma, o'rtoqlaring va atrofingdagilarning ham yutuqlaridan quvonishni o'rgan;

- hech qachon birovga hasad qilma, birovni g'iybat qilma, chaqmachaqarlik qilma;

- senga iltimos qilishlaridan avval, do'stlangandan yordamingni ayama;

- agar sening ishing yurishmasa, boshqalarni ayplashga shoshilma. Noxushliklarga chidashni ham o'rgan. Sabrli bo'l;

- do'stlikning qadriga yet;

- senga yaxshi munosabatda bo'lishlarini xohlasang, sen ham insonlarga yaxshi munosabatda bo'l.





9-MAVZU: TENGDOSHLARIM YUTUQLARI



Ijodiy faoliyat



Rasmlarda turli sohalarda yutuqlarga ega bo'lgan bolalar tasvirlangan.

1. Sizning qanday yutuqlaringiz bor?
2. Bilimli bo'lisingizdan kim ko'proq foyda ko'radi?
3. Puxta bilim egallashingiz uchun nima qilishingiz kerak?

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing va to'ldiring:

Mening yutuqlarim	Ta'lim sohasida	Sport sohasida	Musiqa yo'nali-shida	Til sohasida



II bob. Oiladagi munosabatlar



**So'rab o'rgangan – olim,
orlanib so'ramagan – o'ziga zolim.**



Ijodiy faoliyat


BRONZE
AWARD
(MD)



2019-yil Singapurda matematika fanidan bo'lib o'tgan olimpiadada 20 ta davlatdan mingdan ortiq o'quvchilar ishtirok etdi. Olimpiadada mamlakatimiz o'quvchilari bitta oltin, beshta kumush va oltita bronza medallarini qo'lga kiritdilar.



Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan XV Paralimpiada o'yinlarida O'zbekiston sportchilari sakkizta oltin, oltita kumush va o'n yettita bronza medallari sohibi bo'ldilar.






10-MAVZU: KIM BO'LSAM EKAN?

O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:



1. Sizga qaysi kasblar yoqadi?
2. Katta bo'lsangiz kim bo'lmoqchisiz?
3. Siz orzu qilgan kasbni egallash uchun qanday bilimlar kerak bo'ladi?
4. Berilgan filmni ko'rib chiqing va Hoshimjon nima uchun o'z maqsadiga yetisha olmaganligini gapirib bering.
5. Unga nima yetishmadи?





II bob. Oiladagi munosabatlar

BILIM OL, HUNAR TANLA

Vataning kutar seni,
O'g'lim, yaxshi bilib qo'y!
Baxt yo'liga boshlovchi,
Kitobingga mehr qo'y...

Chiq bilim cho'qqisiga,
Sinchiklab atrofga boq!
Kel, – der daryo, tik tog'lar,
– Xazinam ol, ey o'rtoq.

Muntazirlar yo'lingga,
Ko'z tikib erta-yu kech.
Quyosh chiqar, oy chiqar,
Go'yo der: "Nurimiz ich".

"Kel, ey bilimdon, mard,
Bizni tezroq egalla!" –
Deb turgandek hamma yoq,
Bilim ol, hunar tanla!





Quddus Muhammadiy



Oila davrasida


1. Kitobni ochish uchun kalit nimadan yasalishi kerak?
2. Siz bilimlar kitobini qanday kalit bilan ochmoqchisiz?



11–12-MAVZU: INSON HAYOTIDA QOIDALARING O'RNI




**O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:**



- “Qoida”, “tartib” deganda nimani tushunasiz? Sizning hayotingizda qanday qoidalalar bor?
- Futbol yoki boshqa sport o'yinlarini o'ynaganingizda ma'lum bir qoidalarga amal qilishingiz kerakmi?
- Ko'chadan kelishingiz bilan qo'lingizni sovunlab yuvishingiz shartmi, nima uchun?
- Do'kondan biror narsa xarid qildingiz, pul to'lagani kassa oldiga kelganingizda navbatda turganlar ko'p ekan, siz shoshib turibsiz, qanday yo'l tutasiz?



Akmalga dadasi charm koptok olib berdi. U mактабдан kelishi bilan koptogini olib ko'cha-ga chopdi. Koptokni bolalar maydonchasisda emas, katta yo'lning chetidagi pi-yodalar yo'lagida o'ynay boshladi. Koptok dumalab katta yo'lga chiqib ketdi. Akmal koptokning ketidan chopdi. Koptok esa o'ng tomondan kelayotgan avtomobilning g'il-diragi tagiga kirib ketdi. Haydovchi avtomobilni qattiq tormoz bosib to'xtatdi. Ketma-ket kelayotgan avtomobillar ham zo'rg'a to'xtadi. Yaxshiyamki, bir yo'lovchi Akmalning qo'lidan tutib qoldi.



O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Hikoyaga nom qo'ying. Akmal qanday xatoga yo'l qo'ydi?
2. Akmal qaysi qoidalarga amal qilmadi?
3. Yo'lovchi Akmalning qo'lidan tutib qolmaganida qanday hodisa ro'y berar edi?
4. Akmal o'z xatosining oldini qanday olishi mumkin edi?



Ijodiy faoliyat

*She'rni yod oling!***Svetofor so'zi**

— Hoy, ko'chamiz ustida
Chaqnagan go'zal fonar!
Nega yalt-yult yonasan,
Bizga qanday foydang bor?
Fonar asta jilmayib,
Dedi: "O'zing sinab ko'r!
Bilsang, mening otimni
Deyishadi svetofor.
Uchta chaqmoq ko'zim bor:
Qizil, yashil, sap-sariq.

Yashil ko'zim chaqnasa,
Demak, bilki, yo'l ochiq.
Qizil ko'zim chaqnasa,
Yo'l bekilar taqa-taq.
Sariq ko'zim chaqnasa,
Biroz kutgin hamma vaqt.
Ko'zlarimga, og'ayni,
Nazar tashla hamisha.
Ko'chalardan o'tganda,
Kapalakdek shoshilma".



Muhammadjon Qo'shoqov

**O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:**

1. "Ko'chalardan o'tganda, kapalakdek shoshilma" deganda shoir nimani nazarda tutgan?
2. Bir tasavvur qilib ko'ring: katta ko'chada svetofor ishlamasa, hech kim yo'l qoidalariiga rioya qilmasa, qanday hodisalar yuz berishi mumkin?



III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



Oila davrasida

1. Svetoforlarni daftaringizga chizing! Ularning qizil, sariq va yashil rangli yoritgichlari nimani anglatadi?
2. Berilgan yo'l belgilarining qismlarini birlashtiring. Ularni qayerlarda uchratgansiz?





13-MAVZU: JAMOAT TRANSPORTIDA Avtobusda



Avtobus bekatida turgan Ozoda bilan Barno kun issiq bo'lganligi uchun muzqaymoq sotib olishdi va avtobusga chiqishdi.

Barno avtobusga chiqib, maktab sumkasini kovlay boshladi, shu payt avtobus bir silkinib, uni qalqitib yubordi. Qo'lidagi muzqaymog'i ham tushib, avtobus salonini kir qildi. Yaxshiyamki, bir yo'lovchi ayol uni ushlab qoldi. Manzilga yetib kelgan Barno avtobusdan tushayotib sumkasidan oyna oldi va sochlari tartibga keltira boshladi. Shu vaqt nimaningdir singan tovushi eshitildi... Bu Barnoning oynasi edi.

O'quvchilarни faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:



1. Siz nima deb o'ylaysiz, Ozoda bilan Barno biror bir qoidani buzishganmi?
2. Barno qanday xavfsizlik qoidalariini buzdi?



III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:

1. Rasmlar asosida fikr bildiring.

1. To'g'ri: _____

2. Noto'g'ri: _____

2. Bu belgi nimani bildiradi? Uni hech
yo'lingizda uchratganmisiz?





A



B



D



E



3. Bu rasmlarda qay biri:

1. To'g'ri: _____
2. Noto'g'ri: _____



III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



14–15-MAVZU: SOG' TANDA SOG'LOM AQL

O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:

1. "Sog' tanda sog'lom aql" deganda nimani tushunasiz?
2. Salomat bo'lish uchun qanday qoidalarga amal qilish kerak?

* * *

Murodjon ostonada uni kutib turgan onasiga salom berishni ham unutib, to'g'ri oshxonaga kirdi va shosha-pisha ovqatlana boshladи. O'g'lining harakatlarini kuza-tib turgan ona hayron bo'lib: "O'g'lim, mabodo bugun biror narsani unutmadingmi?..." – deb so'radi.

Murodjon o'ylanib qoldi...





Ijodiy faoliyat



1. Murodjon nimani unutdi?
2. Hikoyaga sarlavha toping.
3. Sizda ham shunday holatlar yuz bergenmi yoki guvohi bo'lganmisiz?



O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:



1. Qishda, bahorda, yozda, kuzda to'g'ri kiyinishing inson sog'lig'iga ta'siri bormi?
2. Kattalar nima uchun "Qishda oyoqlaringizni issiq tuting" deyishini bilasizmi?




III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on

TISH CHO'TKA, POROSHOK VA ATIRSOVUN ERTAGI (parcha)

O'qib ko'ring, do'stlarim,
Yozdim sizga bir ertak.
Yaxshi payqab oladi
Bo'lib tursa kim sergak.
Afsona deb o'ylamang
Yozganimni tag'in siz.
Eshmat degan bolani
Siz ham yaxshi tanirsiz.
Ha, men uning ishlarin
Sizga ta'rif etaman.
Bilganimning ko'pini
Bitta-bitta bitaman.

Po'lat Mo'min



Eshmat nima bo'pti-yu,
Yalqovlashib qolibdi.
Keyin ancha darslardan
„2“, „3“ ham olibdi.
Maktabiga kechikib,
Borar emish ba'zida.
Vazifani bajarmay
Qizararmish darsida.





Tongda badantarbiya
Qilmoq juda ham foyda.
Lekin barcha ishida
Yo'q-da tartib-qoida.
Ozodalik odamning
Tan-joniga malham.
Hammom degan joyga-chi,
Bormabdi uch oyda ham.



Ustidagi kiyimin
Yurmas tozalab, taxlab,
Hatto odat bo'yicha
Yuvinmasmish yaxshilab.
Qarang, bir kun Eshmatning
Tishi og'rib qoldi-ku!
Kuni bilan "voy-voy"lab,
Borolmadi darsga u...

Oila davrasida



She'rni oilangiz bilan o'qib chiqing. Eshmat degan bola qaysi qoidalarga amal qilmagan? Daftaringizga quyidagi jadvalni chizing va uni she'r asosida to'ldiring:

Maktab qoidalari	Salomatlik qoidalari	Kiynish qoidalari



III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



16–17-MAVZU: XAVFSIZLIGING O'Z QO'LINGDA



O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Xavfsizlik, ogohlilik, hushyor bo'lish deganda ni-mani tushunasiz?
2. Inson o'zining xavfsizligini qanday ta'minlashi kerak?
3. Odamlar nimadan ogoh bo'lislari kerak?
4. Xavfsiz hudud deganda nimani tushunasiz?

Bexavotir ko'cha

Olimjon 5-sinf, ukasi Zafar esa 2-sinfga boradi. Ularni mакtabga kuzatib qo'yayotgan onasi: "Ukanga qaysi yo'ldan borib-kelish bexavotir ekanligini tu-shuntirgin. Narigi ko'chada qurilish bo'layapti, u yerdan yurmanglar, yaxshisi, aylanib o'tinglar. Katta yo'ldan o'tishda yerosti yo'lidan o'tib boringlar", – deb ogohlantirdi.

Olimjon endi katta bola bo'lib qolganligi uchun ukasining qo'lidan mahkam tutib, mакtab tomonga odimlab ketdi. Ukasi: "Aka, yuring, yaqin yo'ldan boramiz, qurilishning orasidan o'tamiz. Oyim ko'rib o'tiribdilarmi? Ularga ko'chani aylanib o'tdik, deymiz", – deb xarxasha qila boshladi.



Olimjon esa: "Yo'q, unday qila olmaymiz. Oyim aytgan joydan boramiz. Oyim ko'rmasa, biz, o'zimiz ko'rib turibmiz-ku? Oyimni aldash yaxshi emas. Aldash bizlarga yarashmaydi!" – deb ukasini koyib berdi.

Aka-ukalar maktabga boradigan yo'l uzoqroq bo'l-sa-da, bexavotir ko'chadan yurishdi.





III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



Oila davrasida

1. Hikoyani diqqat bilan o'qing, Olimjon va Zafar-ning onasi nima uchun ularni qurilish bo'layot-gan ko'chadan aylanib o'tinglar, deb ogohlan-tirdi?
2. Siz biror bir manzilga borishingiz uchun qanday yo'lni tanlaysiz?
Xavfsiz yo'lni tanlash deganda nimani tushuna-siz?
3. Uyingizdan maktabgacha bo'lgan xavfsiz yo'l rejasini chizing. Rejada maktab, stadionga xavf-siz o'tish yo'lini ko'rsating.
4. Olimjon nima uchun ukasini koyib berdi?
5. Olimjon "Oyim ko'rmasa, biz, o'zimiz ko'rib tu-ribmiz-ku?" deganda nimani nazarda tutgan?
6. Siz ham ota-onangizdan berkitib biror ish qilmoqchi bo'lganingizda, xayolingizga nima ke-ladi?





Ehtiyot bo'ling!

- Qurilish ishlari bo'layotgan maydonda o'ynamang!
- Elektr jihozlari (dazmol, televizor, kompyuter, mikroto'lqinli pech)dan foydalanayotganda ehtiyot bo'ling!
- Yonuvchi buyumlar (gugurt, gaz plitasi, sham, zajigalka)dan kattalar nazorati ostida foydalaning!
- Yo'llarda uchraydigan turli quvur va chuqurlarni aylanib o'ting!
- Odam kam, xilvat joylardan, kech-qurun xira yoritilgan ko'chalardan yur-mang!
- Telefonda notanish kimsalarga (uy manzilingiz, ota-onangiz va boshqalar haqida) ma'lumot bermang!
- O'tkir tig'li buyumlarni ushlamang!
- O'yin maydonchalarida xavfsizlik qoidalariga rioya qiling!






III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



Ijodiy faoliyat


1. Rasmlarga nom qo'ying. Nima uchun bunday nom tanlaganingizni tushuntiring.
2. Yana nimalardan ehtiyot bo'lish kerak?





18-MAVZU: YAXSHI VA YOMON ODATLAR

**O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:**



1. Siz qanday multfilmlarni ko'rgansiz?
2. Ko'rgan multfilmlaringizni kattalar bilan muhokama qilasizmi?
3. Quyidagi rasmda tasvirlangan multfilm qahramonlarini taniysizmi?
4. Ular qaysi multfilmda ishtirok etgan?
5. Multfilmdagi voqealar qanday yakunlanadi?





III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



Matematika darsida o'qituvchi Sanjardan uy vazifasini so'radi. Sanjar: "Oyim bilan dadam meh-monga ketishgandi, men ukalarimga qarab dars qila olmadim", – dedi.

O'qituvchi boshini chayqatib qo'ydi-da, ortiqcha savol bermadi. Uy vazifasini bajarmagan boshqa o'quvchilar "ikki" baho olishdi. Tanaffus vaqtida Sanjar "ikki" baho olgan sinfdoshlariga: "Ko'rdilaringmi, aldash mana bunday bo'ladi, o'qituvchini bopladim, rosa ahmoq qildim", – deb g'ururlanib maqtandi.

Zebo ismli qiz: "Sanjar, sen yaxshi ish qilmading. Uyalmaysanmi ustozga yolg'on gapirishga?" – deb koyidi. Sanjar Zeboni masxara qilib: "Musichaxon", siz menga aql o'rgatmang", – deb ustidan kului. Zebo xafa bo'ldi...





Oila davrasida



1. Hikoyaga nom qo'ying.
2. Sanjarning xulqidagi sizga yoqmagan odatlarni sanang.
3. Hikoyada qanday yaxshi va yomon odatlar bor?
4. Hikoyaning davomi qanday bo'lishi mumkin?

Ijodiy faoliyat



Yomon odatlardan qanday qutulish kerak?

Ikkita alohida varaq olib, biriga o'zingizning yaxshi odatlaringizni yozing. Ikkinchisiga yomon odatlaringizni yozing.

Ikkinci varaqni hech kimga ko'rsatmay mayda-mayda bo'lakchalarga bo'ling.

Shunday maydalangki, undagi yozuvni o'qib bo'lmasin. So'ngra uni hovliga olib chiqib ko'mib qo'ying.

Birinchi varaqni esa tarbiya daftaringizga yelmlang.

Har safar siz yomon deb hisoblagan odatlarni qilmoqchi bo'lsangiz, o'zingizga o'zingiz "Men yomon odatlarimni ko'mib qo'yganman, qaytib bu ishni qilmayman", deb aytинг. Shunda hamma yomon odatlardan qutulasiz.





19-MAVZU: YOLG'ONNING UMRI QISQA



O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:

1. Kimlar yolg'on gapiradi?
2. Nima uchun "Yolg'onning umri qisqa" deyiladi?
3. Qachon yolg'on gapirish mumkin?
4. Yolg'on ishlatganingiz uchun uyalib qolganmisiz?

Yoz kunlarida Qobiljon va uning do'stlari cho'milish uchun ko'lga tushdilar va o'zlari bilan olib kelgan to'pni suvda o'ynay boshladilar. Ular to'pni suvg'a otishar va orqasidan suzib musobaqa o'ynardilar.

To'satdan Qobiljon: "Qutqaring, cho'kyapman!" – deb baqira boshladi. Qutqaruvchilar yetib kelganlari-






da u: "Men sizlarni sinayotgan edim", – dedi. Erta-si kuni bolalar yana suvda to'p o'ynadilar. Bu safar to'p ancha uzoqroqqa otildi. Qobiljon to'p tomonga shiddat bilan suzib ketdi. Qaytayotganida u o'zini o'nglay olmay qoldi va jon holatda: "Qutqaringlar, cho'kyapman!" – deb baqirdi. Qutqaruvchilar bugun ham bizni sinayapti, deb o'ylab, uning so'ziga e'tibor qilmadilar. Oyoq-qo'li toliqqan Qobiljon suvga cho'ka boshladidi.

Shu yaqin orada bo'lgan odamlar uni bir amal-lab qutqarib oldilar. Uni o'ziga keltirish uchun ancha vaqt ketdi. Kasalxonada ham davolanishiga to'g'ri keldi. Chunki u juda ko'p suv yutgan edi...

Oila davrasida



1. Hikoyani o'qib, unga nom qo'ying.
2. Yolg'onchilik qanday oqibatlarga olib keladi?
3. Ishonch qanday yo'qoladi?
4. Ochiq suzish havzalarida cho'mila-yotganda qanday qoidalarga amal qilish kerak?
5. Agar odamlar Qobiljonnini qutqarmaganlarida qanday hodisa yuz berishi mumkin edi?
6. Qobiljon bilan sodir bo'lgan voqeanning oldini olish mumkinmidi?






III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



20-MAVZU: BIROVNING HAQI



O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

1. "Birovning haqi" degan gapni eshitganmisiz?
2. Bu gap qanday vaziyatlarda aytildi?
3. O'rtoq'ingizning ruchkasini, qalamini, o'chirg'ichini olib, qaytarib berish hech esingizdan chiqqanmi?
4. Nima uchun kattalar: "Birovning haqidan qo'r-qish kerak", – deyishadi?

* * *

Sarvar va Nodir sinfdoshi Bahromnikiga meh-monga borishdi. Bahrom avtomobilarga juda qiziqqani uchun ularning turli o'yinchoq model-larini to'plagan edi. Uch o'rtoq ularni birgalikda o'ynadilar.

Ertasi kuni Sarvar mакtabga o'yinchoq "Neksiya"-sini olib kelib o'rtoqlariga ko'rsatdi. Bahrom g'azab





bilan: "Kecha sizlar ketgandan keyin "Neksiya"mni topa olmadim, demak, sen olgan ekansan-da?" – deb uni o'rtoqlarining oldida izza qildi. Sarvar: "Yo'q, buni kecha menga onam olib berdilar", – deganiga qaramay, "Aldoqchisan!" – deb turib oldi.



Ijodiy faoliyat



Bolalar, siz nima deb o'ylaysiz, o'yinchoqni kim olgan bo'lishi mumkin?

* * *

Bu muammo o'qituvchining qulog'iga ham borib yetdi. O'qituvchi bolalarning ota-onasini chaqirishga majbur bo'ldi.

Sarvarning onasi o'qituvchining savoliga javoban, o'yinchoq "Neksiya"ni kecha Sarvarning iltimosi sababli olib bergenligini va do'konning chekini ko'rsatdi.



III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



Ijodiy faoliyat

Agar o'yinchoqni Sarvar olmagan bo'lsa, kim olgan bo'lishi mumkin?



* * *

Nodirning onasi esa ularning uyida begona o'yinchoq ko'rma-ganligini aytdi.

Gap nima haqidaligini endi ang-lagan Bahromning onasi ham-madan uzr so'rab, o'g'lining o'yinchog'i uyda ekanligini bildirdi.

Shu kuni kechqurun Bahromlar-ning eshigi taqilladi. Eshik oldida sinfdoshi Nodir va uning onasi turar edi. Nodirning qo'lida esa, o'yinchoq "Neksiya"si bor edi...



Ijodiy faoliyat

1. Hikoyaning har bir bo'limiga sarlavha qo'ying.
2. Birovning narsasini so'ramasdan olish mumkinmi?
3. Bahromning onasi nima uchun hammadan uzr so'rab, o'g'lining o'yinchog'i uyda ekanligini aytdi?
4. Hikoyadan birovning haqiga zarar yetkazilgan joylarni toping.
5. Yaxshi va yomon odatlarni aniqlang.





Oila davrasida



Dars vaqtida Aziz ismli bola darsga xalaqit qilib o'tirar edi.

O'qituvchi bir necha marotaba ogohlantirsa-da, Aziz o'z bilganidan qolmas edi.

O'qituvchi unga: "Esiz, seni tartibga chaqirish uchun ketgan vaqtda o'rtoqlaringga ancha ma'lumot berishim mumkin edi. Sen ularning vaqtini o'g'irlading, attang", – deb tanbeh berdi.

1. Aziz o'rtoqlarining haqiga xiyonat qildimi?
2. Birovning vaqt va birovning haqimi?



21-MAVZU: TARTIB VA INTIZOM – MUVAFFAQIYAT SARI ILK QADAM




O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Intizomli bo'lismis uchun nima qilish kerak?
2. "O'z vaqtida" deganda nimani tushunasiz?
3. Biror joyga taklif qilinganiningizda hech kechikkanmisiz?
4. Teatrga kechikib kelgan tomoshabinni spektakl yoki samolyotga kechikkan yo'lovchini samolyot kutib turadimi?
5. Darsga kech qolsangiz, nimalarni yo'qotgan bo'lasiz?
6. Kompyuter o'yinlarini o'ynab, dars qilishga vaqtningiz yetishmay qolganmi? Buning oqibati nima bilan tugagan?
7. "Barvaqt turgan odamning kuni barakali bo'ladi", – deyishadi. Siz bu gapga qanchalik amal qilasiz?

* * *

G'anijon degan bola kompyuter o'yinlariga shu darajada berilib ketdiki, vaqt allamahal bo'lib qolganini ham bilmay qoldi. Qoroni ochganligi uchun oshxonaga chiqdi. Muzlatgichdan u-bu olib yegandek bo'ldi. Onasi uxlama-gan ekan. "Ha, bolam darslaring ko'pmidi, shu vaqtgacha uxlama-msan?" – deb so'radi.





G'anijon bo'lsa: "Yo'q, kompyuter o'ynadim, endi uyqum kelyapti. Darsimni ertaga qilaman", – dedi. Onasi boshini qimirlatib: "Vaqting ketdi – naqding ketdi, buni bir o'ylab ko'r-chi", – dedi.

G'anijon kech yotgani uchun, ertalab onasining ovozidan arang uyg'ondi va yuz-qo'lini yuvdi-da, nonushta ham qilmay mакtabga chopib ketdi.

Shu kuni butun kun davomida G'anijonning boshi og'ridi, doskadagi berilgan ma'lumotlarni ham xato ko'chirdi. Xuddi kimdir doskaning oldiga ko'rmas mato tutib qo'ygan-u, doska xira tortib qolgan edi.



III bob. Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on



Uyga berilgan vazifalarni bajarmaganligi uchun “ikki” baho ham oldi.



Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, G'anijonda kamqonlik kasali paydo bo'libdi. Buning natijasida uning ko'zлari ham xiralashib qolibdi. G'anijon ancha davolandi. Bir muddat ko'zoynak ham taqib yurdi.



Oila davrasida

1. G'anijonning onasi boshini qimirlatib “Vaqting ketdi – naqding ketdi” deganda nimani nazarda tutdi?
2. Siz nima deb o'ylaysiz, “Xuddi kimdir doskaning oldiga ko'rinxmas mato tutib qo'ygan-u, doska xira tortib qolgan edi” deyilganida nima nazarda tutilgan edi?
3. G'anijonning sog'lig'i buzilishiga ta'sir etgan omillarni tushuntiring.





22-MAVZU: BIRLASHGAN O'ZAR

O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:



1. Futbol o'yinida faqat bitta o'yinchining o'zi to'p sursa, natija qanday bo'ladi?
2. Hamjihatlik nima uchun kerak?
3. Siz sinfdoshlarингiz bilan ahilmisiz?
4. "Ahillikda hikmat ko'p" deganda nimani tushunasiz?
5. "Sholg'om" ertagida hamjihatlik va ahillik qanday ifodalananadi?

Qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. U vazirlarini kengashga chaqirib, mamlakatining hududini kengaytirmoqchi ekanligini aytibdi. Vazirlar podshohga avval yon-atrofdagi mamlakatlarni o'rganishni, qaysi biri o'zlarining mamlakatidan qudratsiz



IV bob. Hamjihatlik – davlat, ahillik – hikmat

bo'lsa, o'sha mamlakatga yurish qilishni maslahat berishibdi.

Podshoh ayg'oqchilarini qo'shni mamlakatlarga yuboribdi. Birinchi kelgan ayg'oqchi podshohga: "Men borgan mamlakat harbiy jihatdan kuchsiz ekan. Bozorlari tartibli, o'g'rilar yo'q ekan. Hamma ishni bir-birlari bilan maslahatlashib qilishar ekan. Bemorlardan xabar olishar, juda bir-birlari bilan ahil ekanlar", – debdi.





Ikkinchi mamlakat haqida ma'lumot olib kelgan ayg'oqchi u yer haqida rosa to'lqinlanib gapiribdi: "Mamlakat boy ekan, odamlari bir-biriga befarq ekan. Hamma o'zi bilan o'zi ovora, harbiy qudrati esa juda kuchli ekan".

Shunda podshoh barcha vazirlarni maslahatga yig'ibdi.

Podshoh vazirlarining maslahatini tinglabdi va ikkinchi mamlakatga yurish qilib, uni talafotsiz bosib olibdi.

Ijodiy faoliyat



1. Siz nima deb o'ylaysiz, podshoh nima uchun ikkinchi mamlakatga yurish qildi?
2. Vazirlar qanday maslahat bergen bo'lishi mumkin?
3. Siz qanday maslahat bergen bo'lardingiz?

Oila davrasida



1. Ertakka sarlavha qo'ying.
2. Ertakni "Hamjihatlik – davlat, ahillik – hikmat" maqoli bilan bog'lab tushuntiring.
3. Nima uchun podshoh birinchi mamlakatga hujum qilmadi?
4. Ikkinchi mamlakatning harbiy qudrati kuchli bo'laturib, qanday qilib talafotsiz g'alabaga erishildi?




23-MAVZU: HURMAT QOZONISH



O‘quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Siz qanday odamlarni hurmat qilasiz?
2. O‘rtoqlaringiz ichida hurmat qozonishni istaysizmi?
3. Hurmat qozonish uchun nima qilish kerak?
4. Muloqot qilish, eshitish, tinglash, fikr bildirishda qanday qoidalarga rioya etish kerak?
5. Qanday vaqtarda tabassum qilinadi?



* * *

Sevara mактабдан xafa bo‘lib keldi. Uni ko‘рган бувиши kim xafa qilganligini so‘radi.

Sevara sinfdoshlaridan uni hurmat qilmaganliklari uchun xafa ekanligini aytdi.



Buvisi: “O‘rtoqlaringning hurmatini qozonish uchun o‘zing nima qilding?” – deb so‘radi.

Buvisining savoliga javoban, Sevara: “Voy buvijon, men qizlarga har kuni shirinliklar olib boramani, daftarimdan uy vazifalarini hamma o‘rtoqlarimga ko‘chirtiraman”, – dedi.

Sevaraning gapini diqqat bilan tinglagan buvisi unga shunday dedi:

– Hurmatga bunday erishilmaydi. Sen o‘rtoqlaringa doimo yaxshilik qilgin. Ular bilan yaxshi muomalada bo‘l. Doim tabassum bilan gap boshla!




Oila davrasida



1. Sevara o‘rtoqlarining hurmatini qozonish uchun nima qilishi kerak?
2. Shirinliklar bilan, uy vazifalarini ko‘chirtirish bilan hurmat orttirsa bo‘ladimi?



24-MAVZU: INSONPARVARLIK



O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Qish kelganida qushlar don topolmay qiynaladi, ularga don sepib qo'yganmisiz?
2. Suvsiz qolgan o'simliklarga suv quyganmisiz?
3. Sizning bu harakatingizni insoniylik deyish mumkinmi?
4. Insonparvarlik, elat, millat, qadriyat, marosim degan tushunchalar haqida eshitganmisiz?

1941-yilda fashistlar butun dunyoni bosib olishga harakat qildi. Ular bosib olgan hududlardan uysiz, joysiz, ota-onasidan mahrum bo'lgan rus, ukrain, belorus, moldavan, eston va boshqa millat bolalari, qariyalar O'zbekistonga keltirildi.

O'zbek xalqi ularga insonparvarlik ko'rsatib, o'z uylaridan joy berdilar. Oziq-ovqat va kiyim-bosh bilan ta'minladilar.







1966-yilning 26-aprel kuni saharda Toshkent shahrida qattiq yer silkindi. Shahardagi ko'plab uylar buzildi, odamlar uysiz qoldi. Bu og'ir kunlarda



o'zbek xalqiga rus, ukrain, belorus, moldavan, eston va boshqa millat vakillari yordamga keldi. Toshkent shahri qayta tiklandi, zamonaviy binolar qurilib, shahar yanada go'zallahdi.



25-MAVZU: UYIMIZGA MEHMON KELDI



O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:

1. Mehmon kelganda o'zingizni qanday tutasiz?
2. Mehmonni qanday kuzatasiz?



Zokirjonning uyiga ustozи mehmonga kelibdi. Zokirjon va uning oilasi yashaydigan uyning hovlisi kichkina bo'lsa-da, shinam va fayzli edi. Uy tomiga egilib o'sgan katta gilos daraxtining shoxlaridagi yo-qutday giloslar mehmonning e'tiborini tortdi.

Zokirjonning otasi mehmonni uyga boshladi-da, o'g'liga ustozи uchun darhol tomga chiqib, gilos terishini buyurdi. Bu orada ustozи Zokirjon haqida juda iliq so'zlarni aytib, maktab o'qituvchilarining



yozma rahmatnomasini topshirdi. Oradan vaqt o'tsada, Zokirjon gilos terish uchun tomga chiqmadi.

Ijodiy faoliyat

1. Zokirjon nima uchun tomga chiqmadi?
2. Siz nima ish qilgan bo'lardingiz?

Ustozi Zokirjonning bunday quloqsizligidan hayron bo'lib, uning otasiga savol nazari bilan qaradi.

Buni sezgan Zokirjonning otasi mehmonga: "Yuring, mehmon, tashqariga chiqaylik", – dedi.

Mehmon va otasi hovliga chiqishdi. Shu payt Zokirjon darhol narvonni qo'yib, tomga chiqdi-da, bir zumda gilos terib tushdi.

Gilosxo'rlikdan keyin Zokirjonning ustozi ketish taraddudiga tushdi. Shunda ustozi Zokirjondan: "Nima uchun otangning gapini ikki qilding?" – deb so'radi.

Zokirjon esa: "Uyning ichida siz va otam borligingiz uchun tomga chiqsa olmadim. Sizlar o'tirgan uyning tomiga chiqishni ep bilmadim", – deb javob berdi.

Ijodiy faoliyat


1. Zokirjoni qanday bola deb o'ylaysiz?
2. Zokirjonning bu harakatini qanday baholaysiz?





IV bob. Hamjihatlik – davlat, ahillik – hikmat

26-MAVZU: “MEHMON-MEHMON”



O‘quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

1. “Mehmon-mehmon” o‘yini qanday o‘ynaladi?
2. Qizlar mehmonda o‘zlarini qanday tutishlari kerak?
3. O‘g‘il bolalar, sizlar otangiz, akangiz yoki boshqa kattalar bilan to‘y oshiga borsangiz, o‘zingizni qanday tutasiz, qanday qoidalarga amal qilasiz?
4. Mehmonga aytildigani so‘zlarni bilasizmi?



Ijodiy faoliyat

Mehmon: Assalomu alaykum.

Mezbon: Va alaykum assalom. Keling, mehmon, xush kelibsiz. Ichkariga marhamat.

Mehmon: Rahmat.

Mezbon: To‘rga chiqing. Yaxshi keldingizmi?

Mehmon: Rahmat. O‘zingiz yaxshimisiz?

Muloqotni davom ettiring!





* * *

Sevara, Zebo va Nilufar Dilnozani tug'ilgan kuni bilan tabriklagani mehmonga bordilar. Qizlar avval dasturxon atrofida o'tirib Dilnozani tavallud kuni bilan tabrikladilar va onasi tayyorlagan shirinliklarni tatib ko'rdilar. Shu orada Zebo yotoqxonadagi chinni qo'g'irchoqni ko'tarib chiqdi. Dilnoza shosha-pisha o'rtog'ining qo'lidagi chinni qo'g'irchoqni oldi-da: "Bunga tegish mumkin emas, buni oyijonimga dadajonim sovg'a qilganlar", – dedi. Dilnoza qo'g'irchoqni joyiga olib borib qo'ydi va "bu yerga kirish mumkin emas" degandek, yotoqxona eshigini yopdi.

Oila davrasida



1. Dilnoza va Zeboning harakatlariga baho bering!
2. Dilnoza nega chinni qo'g'irchoqni dugonasidan qizg'anib olib qo'ydi?
3. Siz bunday vaziyatda Dilnozaning o'rnidida nima ish qilardингiz?



27-MAVZU: DO'STLIK – OLIY FAZILAT




O'quvchilarni faollashtirish uchun
savol va topshiriqlar:

1. Do'stingiz ko'pmi?
2. Siz ular bilan nima sababli do'st bo'lgansiz?
3. Do'st tanlashda nimaga e'tibor berish kerak?
4. Do'stlarga qanday munosabatda bo'lish lozim?

Bir kuni Sherzod matematikadan uy vazifasini bajara olmadi va tanaffusda sinfdoshlariga: "Kim menga uy vazifasini ko'chirtirsa, rangli ruchkamni beraman", – dedi.

Davron: "Kel, senga tushuntirib beraman, o'zing ishlaysan", – degan edi Sherzod xafa bo'ldi.

Sarvar bo'lsa: "Chin do'st ham shunday bo'ladimi? Mana, ol, Sherzod, mendan ko'chirib olaqol", – deb daftarini uzatdi.





Ijodiy faoliyat

1. Siz nima qilgan bo'lardingiz?
2. Chin do'st qanday bo'ladi?



**O'ng qo'ling bilan berganiningni
chap qo'ling bilmasin.**



Bu voqeal qaysidir mamlakatda sodir bo'lgan edi. Xullas, o'sha mamlakatdagi maktabda bolalar uylaridan olib kelgan tushliklarini sinfda tanovul qilishar ekan.





IV bob. Hamjihatlik – davlat, ahillik – hikmat

O'qituvchi tanaffus e'lon qilib, bolalarga tushlik qilishga ruxsat berdi. Temurdan boshqa hamma o'quvchilar ovqatlana boshladi. Temur bo'm-bo'sh ovqat idishini ochib qayta yopdi-da, ustozidan tashqariga chiqib kelishga ruxsat so'radi.

Tashqariga chiqqach, qornini to'ydirish uchun suv ichdi. Och qoringa ichilgan suv, qorinda chunonam surnay chaldiki, buni uning yonida turgan odam ham eshitishi mumkin edi.

Temur sinfga qaytib kelib, o'rniga borib o'tirdi. Ovqat idishini partasidan olib sumkasiga joylamoqchi edi, uning ichida nimadir borligini sezib qoldi. Ochib qara-sa, non, pishirilgan go'sht, pishloq va turli sabzavotlardan tayyorlangan ozgina salat bor edi. U atrofga qaradi, hamma sindoshlari o'zi bilan o'zi ovora edi...



Oila davrasida

1. Siz nima deb o'ylaysiz, Temurning ovqat idishini kim to'ldirib qo'yan bo'lishi mumkin?
2. Siz do'stingizga yashirincha yaxshilik qilganmisiz?
3. Do'stini xijolatga qo'ymaslik deganda nimani tushunasiz?
4. Hikoyalarga mos bo'lgan hikmatli so'zlarni toping.
5. "O'ng qo'ling bilan bergenigni chap qo'ling bilmasin" deganda nimani tushundingiz?



28-MAVZU: SOVG'A BERISH VA SOVG'A OLİSH TARTIBI

O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:



1. Siz kimgadir sovg'a tanlaganmisiz?
2. Nima uchun sovg'a beriladi?
3. Sizga sovg'a bergen insonga qanday minnatdorchilik bildirgansiz?

Sovg'a


Zohidjon do'stining tug'ulgan kuniga sovg'a olmoqchi bo'ldi. Bu masalada buvisi bilan maslahat qildi. Ular rastalarni aylanib, bir do'kon oldida to'xtashdi. Unda turli mavzular va sohalarga oid kitoblar bor ekan.

Zohidjonning buvisi "Men bilgan va bilmagan dunyo", "U kim, bu nima?", "Olam va odam haqida bir olam ma'lumot" degan kitoblarni qo'liga olib, ular nima haqida ekanligini aytib berdi.

KITOBIM – OFTOBIM



O'YINCHOQLAR DO'KONI





Ijodiy faoliyat

1. Bolalar, Zohidjonga sovg'a tanlashga yordam bering.
2. Siz sovg'aga nimani tanlagan bo'lardingiz, nima uchun?
3. Siz uchun eng katta sovg'a nima?



Bilasizmi?

- Sovg'a – ayrimlar uni hadya, tuhfa deb aytishadi.
- Sovg'a chin ko'ngildan beriladi.
- Berilgan sovg'a hech qachon qaytarib olinmaydi.
- Chin ko'ngildan berilgan sovg'aning katta-kichigi bo'lmaydi.
- Sovg'a berib u-bu narsa tama qilib bo'lmaydi.
- Ota-onangiz uchun eng katta sovg'a sizning odobingiz va xulqingizdir.
- Onajoningiz uchun eng yaxshi sovg'a bu o'z qo'lingiz bilan yetishtirgan gulingiz, yasagan sovg'angiz bo'llishi mumkin.





Bilasizmi?



Olamning sirlari kitoblarda mujassamdir. Ular insonni tarbiyalab, qadrini yuksaltiradi. Shu bois ham ko'p kitob o'qigan insonlarning dunyoqarashi keng, nutqi ravon bo'ladi. Ularning so'zini hamma hurmat bilan tinglaydi.



Bilim va odob saodat kalitidir!



Oila davrasida



1. Nima deb o'ylaysiz, sizning odobingiz va xulqingiz qanday qilib ota-onangizga sovg'a bo'lishi mumkin?
2. Nima uchun sovg'a berib u-bu narsa tama qilib bo'lmaydi?
3. Do'stlaringizga qaysi kitoblarni sovg'a qilgan bo'lardingiz, nima uchun?



IV bob. Hamjihatlik – davlat, ahillik – hikmat

29-MAVZU: ZIYORAT ODOBI




O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

1. "Ziyorat qilish" deganda nimani tushunasiz?
2. "Ota-onani va ustozni ziyorat qilish kerak" degan gapni eshitganmisiz?
3. Jasur va mard inson so'zlari kimlarga nisbatan va qaysi holatlarda ishlataladi?

Yakshanba kuni bobojonim bilan qabristonga bordik. Qabristonga kirar ekanmiz, bobojonim mena ziyorat qilish odobi haqida gapirib berdilar. O'tganlarni faqat yaxshilik bilan yod etish kerakligini tushuntirdilar. Mana oilamizning xilxonasiga yetib keldik. Bu yerga bobojonimning ota-onalari va boshqa qarindoshlari qo'yilgan ekan. Bobojonim tilovat qildilar, keyin duo qildilar. So'ngra qabrlarni tozalab, gullar ekdik.



O'tganlarni yaxshilik bilan eslash – insoniy fazilat.





Ijodiy faoliyat



1. Qabristonni ziyorat qilishda qanday tartib va qoidalarga amal qilish kerak?
2. "Yaxshilik bilan yod etish" deganda nimani tushundingiz?

Shu kuni oilamiz bilan Xotira maydoniga ham bordik. Men bobojonimning qo'llarini qattiq siqqancha, ularning yonida faxr bilan borardim. Nazarimda, hamma bizga havas bilan qarayotgan edi. Shu yerdagi jurnalistlar bobomni suhbatga tortdilar, bobomdan urush haqidagi xotiralarini so'radilar. Bobom: "Biz urushning nima ekanligini ko'rdik. Sizlar buni ko'rmanglar, tinchlikning qadriga yetinglar!" – dedilar.





IV bob. Hamjihatlik – davlat, ahillik – hikmat



Ijodiy faoliyat

1. Xotira maydoni haqida yana nimalarni bilasiz?
2. Nima uchun Xotira maydoni deyiladi?
3. Tinchlikning qadriga qanday yetish mumkin?
4. Hikoyalarga nom qo'ying.

Suhbat

Erkinjon g'ijinib der,
Qosh-ko'zin chimirib der:
– Bir gapim bor, dadajon,
Urush chiqqan qaydan, qachon?
Uni boshlab chiqargan kim?
U qanday odam ekan?
Nima uchun urisharkin,
Nimani talasharkin?
Odamni xafa qilish,
Degansiz-ku, yomon ish?
– Barakalla, dono bolam,
Gaping ma'qul, a'lo bolam.
Urush o'lishi kerak,
Uni yerga ko'mish kerak.
Urush bu – hayvon ishi,
Gazandalar shum turmushi.
Bilasan-ku, shum bo'rini,
Ochko'z, vahshiy o'g'rini,
O'shandan ham battar yomon,
Odamning bo'risi battol.





Fashist deymiz uning nomin,
 Odamlarning ichar qonin.
 Erkin deydi: Xanjar tirnoq,
 Burni bigiz, og'zi taypoq,
 Fashist o'sha-da, dadajon?
 – Topding, o'g'lim, xuddi o'zi,
 Qontalashgan ola ko'zi.
 O'shandan chiqqan urush,
 O'sha qonxo'r, badburush.
 Dunyoda bitgan emas,
 Yer tamom yutgan emas.
 Lozim doim tayyor turish,
 Tinchlikni fashistdan qo'rish!

Quddus Muhammadiy



Oila davrasida



1. She'rni rollarga bo'lib, ifodali o'qing.
2. She'rdagi "Odamni xafa qilish, Degansizku, yomon ish?" jumlasining "Sizlarning yaxshilaringiz birovga tili bilan ham, qo'li bilan ham ozor bermaydiganingiz" degan hikmat bilan bog'liqlik joyi bormi?
3. Tili bilan ozor bermaslik deganda nimani tushundingiz?





IV bob. Hamjihatlik – davlat, ahillik – hikmat

30-MAVZU: YOZGI TA'TIL – BIR YILGA TATIR



O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar:

Suv havzalaridan foydalanish qoidalari bilsizmi?

Buni esda tuting!



Suv havzalari yoniga kattalarsiz yaqinlashib bo'lmaydi.



Notanish va taqiqlangan joylarda cho'milish mumkin emas.



Ovqatlangandan va oftobda uzoq vaqt toblangandan keyin suvda cho'milib bo'lmaydi.



Albatta, suzishni o'rganing. Daryo osti relyefi va chuqurligini bilmasangiz, suvga sho'ng'imang.



To'siq ortiga suzmang.



Suvdagи o'yin paytida e'tiborli va ehti-yot bo'ling.



Ijodiy faoliyat

Yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazish bo'yicha reja ishlab chiqing.





MUNDARIJA

I BOB. IMKONIYATLAR ESHIGI

1-mavzu: Olamni mahliyo aylagan diyor.....	4
2–3-mavzu: Imkoniyatlar va ehtiyojlar	8
4-mavzu: Men qanday inson bo‘lishim kerak?.....	12

II BOB. OILADAGI MUNOSABATLAR

5–6-mavzu: Qarisi bor uyning parisi bor.....	16
7–8-mavzu: Maktabim – qadrdonim	21
9-mavzu: Tengdoshlarim yutuqlari.....	25
10-mavzu: Kim bo‘lsam ekan?	27

III BOB. TARTIB-INTIZOM HAMROHING BO‘LSIN HAR ON

11–12-mavzu: Inson hayotida qoidalarning o‘rni	29
13-mavzu: Jamoat transportida	33
14–15-mavzu: Sog‘ tanda sog‘lom aql	36
16–17-mavzu: Xavfsizliging o‘z qo‘lingda.....	40
18-mavzu: Yaxshi va yomon odatlar.....	45
19-mavzu: Yolg‘onning umri qisqa.....	48
20-mavzu: Birovning haqi	50
21-mavzu: Tartib va intizom – muvaffaqiyat sari ilk qadam ..	54

IV BOB. HAMJIHATLIK – DAVLAT, AHILLIK – HIKMAT

22-mavzu: Birlashgan o‘zar	57
23-mavzu: Hurmat qozonish.....	60
24-mavzu: Insonparvarlik	62
25-mavzu: Uyimizga mehmon keldi.....	64
26-mavzu: “Mehmon-mehmon”	66
27-mavzu: Do‘stlik – oliy fazilat	68
28-mavzu: Sovg‘a berish va sovg‘a olish tartibi.....	71
29-mavzu: Ziyorat odobi	74
30-mavzu: Yozgi ta’til – bir yilga tatir.....	78



O'quv nashr

**Ismatova Nargiza, Ro'ziyeva Dilnoz, Islomov Zohidjon,
Rahimjonov Durbek, Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir,
Mahmudov Obiddin, Zokirova Sevara, Madaliyeva Sevara,
Shermuhamedova Saodat, Akkulova Saodat, Mo'minova Laylo,
Xolmuhamedova Nilufar**

TARBIYA

2-sinf uchun darslik

Rassomlar: *Najotbek Jo'raboyev, Azizbek Jabborov*

Muharrir Javlon Yaxshiboyev

Badiiy muharrir Izzat Yo'ldoshev

Texnik muharrir Tatyana Xaritonova

Musahhihlar: *Malohat Ibragimova, Dono To'ychiyeva*

Dizayner va sahifalovchi Komoliddin Nadjmiddinov

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290. 11.04.2016.

2020-yil 20-yanvarda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₈.

Kegli 16 shponli. Arial garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. _____

shartli bosma taboq. _____ nashr tabog'i.

Adadi _____ nusxa. _____ raqamli buyurtma.

Dizayn konsepsiysi va uslubi bosh pudratchi Kolorpak MCHJ
tomonidan ishlandi.



G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

www.gglit.uz

info@gglit.uz